

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA MOHINUR BARATBOYEVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PEDAGOGIKAGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA
TARJIMA MUAMMOLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UDK: 811.111'373.46:37

811.512.133'373.46:37

**Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси
автореферати мундарижаси**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Nizomova Mohinur Baratboyevna

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari.....3

Низомова Мохинур Баратбоевна

Структурно-семантические особенности и проблемы перевода педагогических терминов на английский и узбекский языки.....35

Nizomova Mohinur Baratboyevna

Structural-semantic features and translation problems of pedagogical terms in English and Uzbek71

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....75

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIZOMOVA MOHINUR BARATBOYEVNA

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PEDAGOGIKAGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA
TARJIMA MUAMMOLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2022

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2119 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tersu.uz>) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Paluanova Xalifa Dariboyevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mirsanov G'aybulla Qulmurodovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ikromov Islom Xushboqovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2022 йил «12» dekabr soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221 -74-55; факс (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (98 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221 -74-55; факс (876) 221-71-17

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil « 30 » 11 kuni tarqatildi.
(2021 yil « 30 » 11 dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).




B.Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, f.f.d. (DSc), prof.


A.Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, f.f.d. (DSc), dotsent.


Sh.Maxmaraimova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, f.f.d. (DSc), dotsent.

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminologik sathning o'rganilishini tashkil etuvchi barcha sohalarni amaliy tadqiq etishga keng e'tibor qaratilgan. Xalqning millat darajasiga ko'tarilishida shu xalqni tashkil etuvchi kishilarning orzu-maqсадlari yo'lida jipslashishida, shubhasiz, tilning roli beqiyosdir. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari o'rtasida xorijiy tillarni intensiv ravishda o'qitish va o'rgatish borasida tajriba almashish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq faol integratsiya va o'zaro hamjihatlik munosabatlari shakllangan. Aynan, davr talabidan kelib chiqqan holda dunyo miqyosida ingliz, nemis, fransuz, ispan, rus tillarini zamonaviy xorijiy til sifatida o'rgatishning ilg'or texnologiyalari ishlab chiqildi va til o'rgatish amaliyotiga tatbiq etildi. Ushbu jarayon terminologiya sohasida yuz bergan o'zgarishlarda o'z aksini topgan.

Dunyo tilshunosligida pedagogika sohasiga oid terminlarni tartibga solish ishlari turli tizimli tillar doirasida amalga oshirilgan bo'lsa-da, shu kungacha bu soha terminlari milliy tilimiz – o'zbek tili asnosida jahon tillaridan biri bo'lgan ingliz tili manbasi bilan qiyosiy-chog'ishtirma yo'sinda ularning struktur-semantik, leksikografik va tarjima muammolari hamon yetarlicha hal etilmagan. Jumladan, pedagogika sohasiga oid terminlarni tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shu ma'noda, terminlarning strukturaviy va semantik modellarini aniqlash, baynalmilal va o'zlashma qatlam birliklarining milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tahlil va tadqiq etish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, mazkur terminlardagi sinonimlik (variantlilik), polisemik va omonimlik holatlarini tartibga solish hamda me'yorlashtirish yuzasidan takliflar berilmoqda.

O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotga erishishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlarining tiklanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek tili leksikasining boyishi va rivojlanishi ham istiqloq yaratgan imkoniyatlar bilan bog'liq bo'ldi. Shuning barobarida o'zbek tilshunosligida ham tilimizning turkona tabiatini aniqlashga yo'naltirilgan qator tadqiqotlar bajarildi. O'zbek tilshunoslari terminologiyani tartibga solish, o'zbek tilidagi turli soha terminlarini izohlash, o'zbekcha termin yasash usullarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikning taraqqiy etib borishi bilan uning terminologiyasida ham tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar yuzaga chiqdi. Zero, «...farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur»¹. Pedagogikaga oid terminlar pedagogika sohasi texnologiyalarining yangilanib turishi va rivojlanishi hisobiga boyib bormoqda va o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bu singari muammolar yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish, tilshunoslikda nafaqat terminologiya, shuningdek qiyosiy-chog'ishtirma tizimni ilmiy asosda chuqur tadqiq etish imkonini ham yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini

¹Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 17.

o'shinish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ3907-sonli «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli qarori hamda ushbu sohaga taalluqli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi natijalari ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya va uning nazariy asoslari, ularning shakllanishi, tartibga solinishi kabi masalalar G.O. Vinokur², V.V. Vinogradov³, M.N. Volodina⁴, V.A. Tatarinov⁵, T.R. Kiyak⁶, M.N. Latu⁷, S.D. Shelov⁸, F.A. Sitkina⁹, B.N. Golovin¹⁰, A.A. Reformatskiy¹¹, O.S. Axmanova¹², V.M. Leychik¹³, R.A. Budagov¹⁴, D.S. Lotte¹⁵, L.Y. Buyanova¹⁶, K. Kageura¹⁷, V.P. Danilenko¹⁸, A.N. Kononov¹⁹, A.N. Baskakov²⁰ singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Ayni shunday masalalar, tilshunoslikda terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti masalalaridagi kamchilik va nuqsonlar, sinonimiya va uni bartaraf etish muammolari ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq kabi asosiy turkiy tillar hamda tojik tili terminologiyalarida ham tadqiq etilgan. Biroq, hozirgi kun nuqtayi nazaridan pedagogikaga oid terminlarning xorijiy

²Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва: 1939. – С. 3-54.

³ Vinogradov V.V. Основные этапы истории русского языка// Избранные труды. История русского литературного языка. – Москва, 1988. – С. 10-14.

⁴Володина М.Н. Теория терминологической номинации. – Москва: Издательство Московского университета, 1997. – С. 180.

⁵Татаринов В.А. Теория терминоведения: в 3 т. Т.1. Теория термина: история и современное состояние. – Москва: Московский лицей, 1996. – С. 311.

⁶Кияк Т.Р. Лингвистические аспекты терминоведения. – Киев: УМКВО, 1989. – С. 103.

⁷Лату М.Н., Раздубов А.В. Терминоведение: частные вопросы развивающихся терминологий: учебное пособие к лекционному курсу «Общие и прикладные аспекты терминоведения». – Пятигорск, 2011. – С. 132.

⁸Шелов С.Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. Серия: Филологические исследования. – СПб: Филол. факультет СПбГУ, 2003. – С. 280.

⁹Циткина Ф.А. Терминология и перевод: (К основам сопоставительного терминоведения). – Львов: Вища школа, Изд-во при Львов. гос. ун-те, 1988. – С. 162.

¹⁰Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – Москва: Высшая школа, 1987. – С. 104.

¹¹Реформатский А.А. Введение в языковедение: Учебник для вузов. – Москва: АСПЕНТ ПРЕСС, 1996. – С. 78-120.

¹²Ахманова О. С., Словарь лингвистических терминов (Book Review) Том 35, 1967. – С. 170 - 510.

¹³Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва: URSS, 2007. – С. 20-84

¹⁴Будагов Р.А. Сравнительно-семасиологические исследования: Романские языки – Moscow, 1963. – С. 35-59.

¹⁵Лотте Д. С. Некоторые принципиальные вопросы отбора и построения научно-технических терминов. Москва; Л., 1941. – С.88-99; Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. М.: АН СССР, 1961. – С. 57.

¹⁶Буянова Л. Й. Термин как единица логоса [Term as the unit of logos]. Краснодар, 2002 – С. 45.

¹⁷Kageura K. The Dynamics of Terminology: A descriptive theory of term formation and terminological growth. John Benjamins Publishing. 2002. – P. 91-183.

¹⁸Danilenko V.P. Introduction to Linguistics: Lectures. – Book on Demand Ltd., 2015. – P. 110-160.

¹⁹Кононов А. Н. Тюркская филология в СССР: 1917 – 1967. – Москва: ГРВЛ, 1968. – С. 88.

²⁰Баскаков Н.А. К вопросу о грамматических терминах в среднеазиатских языках // Просвещение национальностей, Москва, 1961. – №2. – С. 28-39.

tillarni o'rgatishdagi tutgan o'rni ingliz va o'zbek tillarida mazkur soha terminlarining qo'llanilishidagi adekvatlik va noadekvatlik munosabatlar, soha terminologiyasini lingvistik, ijtimoiy-madaniy va qiyosiy aspektda o'rganishga oid muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi bois, ularning ilmiy tadqiqi davr taqozosiga aylandi.

O'zbek tilshunosligida esa V.V. Reshetov²¹, H.Dadaboyev²², A.Hojiyev²³, L.V.Reshetova²⁴, D.Xudoyberganova²⁵, M.Jusupov²⁶, A.Qosimov²⁷, I.R.Ermatov²⁸, Sh.Abdullaeva²⁹, S.A.Azizov³⁰, P.Nishonov³¹, X.D.Paluanova³², D.X.Kadirbekova³³, S.T.Musayeva³⁴, G'. Abdurahmonov³⁵, O. S. Ahmedov³⁶, G.M.Ismoilov³⁷ va boshqa olimlar terminologiya sohasi rivojiga olib borgan izlanishlari samarasi orqali o'z xissalarini qo'shishgan.

Zero, pedagogikaga oid terminlarning strukturaviy va semantik tadqiqi masalasiga hamda tarjima muammolariga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan bo'lsa-da, ularning ingliz va o'zbek tillari misolida struktur-semantik xususiyatlariga to'laqonli talqinlar va chog'ishtirma tahlillar amalga oshirilmagan. Shu bois, pedagogikaga oid termin zamonaviy lingvistik tamoyillar asosida ilmiy jihatdan o'rganilishini va yechimini topishni taqozo qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi "Ingliz tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning yasalishi, leksik, semantik hamda struktur xususiyatlarini ochib berish orqali ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarni tarjima qilish usullarini aniqlashdan iborat.

²¹ Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш., О'zbek диалектологияси. – Тошкент., 1962. – Б. 56

²² Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б.76.

²³ Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. Toshkent, 1963- B.55; Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati, Toshkent. 1963. –B. 25-45.

²⁴ Reshetova L.V. The grammatical terminology of the Uzbek language. Diss. ... Cand.philol. sciences. – Toshkent, 1961. – P. 211

²⁵ Xudoyberganova D. A concise glossary of terms of linguoculturology. – Tashkent:Turon zamin ziyo, 2015. – P. 41.

²⁶ Dzhusupov M. Terminological differentiation of disciplines of diachronic and synchronic comparative study of related languages. RUDN Bulletin, series Theory of language. Semiotics. Semantics, 2014, No. 3. – P. 61-69.

²⁷ Kosimov A. Pharmaceutical terminology in the modern Uzbek language: Author's abstract. diss. ... cand. philological sciences. – Tashkent, 1982–28p.

²⁸ Ermatov I R Formation and development of Uzbek linguistic terms (based on textbooks of general secondary schools). Doctor of Philosophy. ... diss. author's ref. – Tashkent, 2019. – B. 23.

²⁹ Abdullaeva Sh. Term and terminology as a linguistic problem (based on the material of English-language and Russian-language studies). "Uzbekistonda khorizhiy tillar" ilmiy metodik electronic journal №2 / 2017. – B. 95-105.

³⁰ Azizov S.A. Lexico-grammatical study of the musical terminology of the Uzbek language: Diss. ... Cand. philol. sciences – Tashkent, 1981. – P. 160.

³¹ Nishonov P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B. 25.

³² Paluanova X.D. Derivational-semantic features of ecological terms (on the example of Uzbek, Karakalpak, English and Russian). Filol.fan. d-ri. (DS) ... diss. avtoref. – Tashkent, 2016. – P. 88.

³³ Kadirbekova D.X. English – Uzbek terminology of information and communication technologies and its lexicographic features: Doctor of Philosophy. ... diss. avtoref. – Tashkent, 2017. – P. 44.

³⁴ Mustafaeva S.T Chinese Linguistic Terminology: Doctor of Philosophy. ... diss. author'sref. – Tashkent, 2017. – P. 42.

³⁵ Abdurahmonov G'. Terminologiya muammolari //O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perespektivalari: Birinchi Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 12.

³⁶ Axmedov O.S. Linguistic analysis and translation problems of tax and customs terms in English and Uzbek: Filol.fan. d-ri ... dis. - Tashkent, 2016. – P. 18.

³⁷ Ismailov G.M Semantic formation of terms in the terminological systems of the Uzbek language. Philol. Candidate of Sciences ... dis. author's ref. – Tashkent, 2011. – P. 27.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarining paydo bo'lishidagi asosiy omillarini aniqlash, tilshunoslikda o'rganilishini yoritib berish;

pedagogikaga oid terminlarning leksik xususiyatini ochib berish hamda sohaga oid terminlarni struktur-semantik jihatdan tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarni lisoniy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish omillarini ilmiy asoslash;

ingliz va o'zbek tillariga o'zlashgan pedagogikaga oid terminlarning yasalish resurslarini aniqlash;

chog'ishtirilayotgan tillardagi pedagogikaga oid terminlarni tarjima qilish muammolari va tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlar va ularning lingvistik xususiyatlari tanlandi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogika sohasiga oid terminologik ma'noli leksemalarning shakllanishi va rivojlanishidagi omillar, shakl strukturasi ko'ra tasnifi, strukturaviy-semantik va tarjimada qilish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil, analiz va sintez, qiyosiy-tipologik, tarixiy-etimologik, komponent tahlil, semantik maydon tahlili, lingvostatistik tahlil va tarjima usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning qadimiy shakllanishi hamda yasalishiga ko'ra bugungi pedagogik terminologiyasi rivojida ingliz tilidan so'z o'zlashtirish jarayoni barcha tillarda ustuvorlik kasb etishi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogika sohasiga oid terminlar yasalishining miqdoriy gradatsiyasi ishlab chiqilib, bir komponentli atamalar ikki komponentli atamalarga nisbatan miqdor jihatiga ko'ra ko'p, mavzuviy jihatiga ko'ra teng ekanligi aniqlangan;

turli tizimli tillarda termin yasalish usullari aniqlangan (*suffiksatsiya, affiksatsiya va prefiksatsiya usullari orqali yasalishi*) va natijada ushbu usullar yangi pedagogikaga oid terminlarning yasalishida yangi pedagogik tushunchalarning yuzaga sababli mahsuldor ekanligi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid atamalarni o'rganishda qiyosiy terminshunoslik tamoyillarini tillararo muvofiqlashtirish va pedagogikaga oid terminlarini unifikatsiya qilish, ularni tarjima qilishdagi grammatik transformatsiyalash muammolarini hal qilishga asoslangan tarjima turlarining nasriy, she'riy kabi badiiy tarjima usullari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qiyosiy terminshunoslik sohasi uchun tadqiqot materiali sifatida xizmat qiladi;

soha terminlari "Ingliz tili leksikologiyasi" kursi bo'yicha olib boriladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda talabalarga "kalit so'zlar" tarzida taqdim etiladi va muayyan metodik kategoriyalarni tavsiflashda faol qo'llaniladi;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarining ichki va tashqi omillar asosida shakllanishi, takomillashuv jihatlari, tarjima usullari tadqiqi orqali chiqarilgan

xulosalar nafaqat tilshunoslik uchun, pedagogika sohasi bo'yicha ham yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotdagi ilmiy-nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan tanlab olingani, mazkur sohaga oid inglizcha terminlarning va o'zbek tillarida muayyan terminografik prinsiplar asosida tadqiq etilganligi, xulosa va tavsiyalarning terminologiya amaliyotiga va ta'lim jarayoniga joriy qilinganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tilshunosligida asosiy ilmiy xulosalari va nazariy umumlashmalaridan terminologiya nazariyasi, pedagogikaga oid soha terminlarining yasaliishidagi leksik-semantik, morfologik, morfologik-sintaktik, konversiya va abbrevatsiya usullari kabi masalalarga, kompleks yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati til ta'limi sifatini oshirishga, bo'lajak chet tili mutaxassislarining kasbiy ta'lim terminologiyasini egallashiga hamda pedagogika va xorijiy tillarni integrallashgan usulda o'qitish metodikasiga doir yangi nazariyalarni rivojlantirishda manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolarini tadqiq qilishda ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida pedagogik terminlarning qadimiy shakllanishi hamda yasaliishiga ko'ra bugungi pedagogik terminologiyasi rivojida ingliz tilidan so'z o'zlashtirish jarayoni barcha tillarda ustuvorlik kasb etishi asoslanganligiga oid yangilikdan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda bajarilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasaliishi" mavzusidagi fundamental tadqiqot bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 17-01/82-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida Qoraqalpoq pedagogika sohasida yangi pedagogik atamalar shakllanib umumiste'mol pedagogik atamalarga aylangan;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogika sohasiga oid terminlar yasaliishining miqdoriy gradatsiyasi ishlab chiqilib, bir komponentli atamalar ikki komponentli atamalarga nisbatan miqdor jihatiga ko'ra ko'p, mavzuviy jihatiga ko'ra teng ekanligi aniqlanganligiga oid yangiliklardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2019-2021 yillarga mo'ljallangan I-OT-2019-42 raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 01/4-510-son ma'lumotnomasi) Natijada loyiha doirasida Ingliz va o'zbek tillarida pedagogika sohasida atamalarning struktur tahlili o'rganilishiga ijobiy hissa qo'shgan;

ingliz va o'zbek tillarida pedagogikaga oid atamalarni o'rganishda qiyosiy terminshunoslik tamoyillarini tillararo muvofiqlashtirish va pedagogikaga oid terminlarini unifikatsiya qilish, ularni tarjima qilishdagi grammatik transformatsiyalash muammolarini hal qilishga asoslangan tarjima turlarining nasriy, she'riy kabi badiiy tarjima usullari dalillanganligiga oid dasturlardan Qashqadaryo teleradiokompaniyasi "Qashqadaryo" telekanalida tashkil etiladigan "Fayzli kun" ko'rsatuvining "Xorijiy tilni o'rganish zamonaviy pedagogika sohasining yutuqlari" deb nomlangan ko'rsatuvi ingliz va o'zbek tillarida pedagogika sohasiga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolarini yoritish xorijiy tilni o'rganish va o'rgatish usullari hamda zamonaviy pedagogika sohasining yutuqlari uchun tavsiyalar berildi. ("Qashqadaryo" telekanalining 17-05/83-son ma'lumotnomasi) bilan asoslanadi. Natijada yuqori saviyali barkamol avlodni voyaga yetkazish, pedagogik ta'lim-tarbiya berish, pedagogik madaniyatni shakllantirish, faoliyati davomida pedagogik atamalardan to'g'ri foydalanish haqidagi targ'ibot ishlari mavzusini mukammallashtirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 nomdagi ilmiy ish, shulardan: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 125 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda pedagogikaga oid terminlar o'rganilishining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi, xorijlik va yurtimiz tilshunos olimlari tomonidan berilgan tavsiflar nazariy jihatdan o'rganildi.

Hozirgi kunda qiyoslanayotgan tillar leksikasining tez o'zgaruvchan va faol qatlamini pedagogika sohasiga oid terminologik birliklar tashkil etadi. Mazkur sohaning terminologiya tizimi tarkibi muntazam ravishda yangi terminlarning yaratilishi, ularni tarjima muammolarini, iste'molga kiritilishi hamda o'zlashma terminlarning paydo bo'lishi hisobiga o'zgarishi va yangilanish jarayonlariga yuz tutmoqda. Shu bois, pedagogika sohasida terminologiyaning lingvistik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari talqini muammolari ilmiy jihatdan o'rganishga oid tadqiqotlar olib borish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, mazkur soha terminologiya tizimining qiyoslanayotgan tillardagi ifodaviy imkoniyatlarni chuqurroq o'rganish va ularning yanada imkon qadar sermahsulligini oshirish yo'llarini o'rganish zarurdir.

Mazkur bobda tadqiqotda ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq pedagogikaga oid terminlar lingvistik tadqiqot obyekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi ochib berilgan.

Terminologiya fanining ulkan rivoji XIX asrda namoyon bo'lgan. Bunga turli tillarda yangi terminlar va tushunchalar paydo bo'lishi omil bo'lgan. Bu esa, bir xil tushuncha turli terminlar orqali ifodalanishiga ham sabab bo'lgan. Shu bois, D.S. Lotte o'z tadqiqotida *“terminologiyani terminlar tizimi sifatida”*³⁸ talqin qilgan va ularni ma'lum hamda aniq tushunchalarni ifodalash uchun kerakli vosita deb qaragan.

L.V. Ivina fikricha esa, *«termin – fanning, maxsus bilimlar sohasining va insonning turli faoliyatining asosiy birligidir, uning vazifasi obyektlar va jarayonlarni ifodalab berish hamda atrofda dunyoni bilish uchun muhim vositadir»*³⁹.

X.D. Paluanovanning talqinicha esa, *“terminlar - biror xalq tili asosida shakllanadi, bunda maxsus tushunchalarni ifodalashning milliy vosita va usullari ham ishga solinadi, shu bilan birga ularning yangi turlari ham kashf etib boriladi. Ko'plab avlodlarning professional tajribasini qayd qilgan va tartibga solgan holda terminlar insonning tildagi rolini yana ham kuchaytiruvchi sohaga aylanadi”*⁴⁰.

³⁸Лотте Д. С. Некоторые принципиальные вопросы отбора и построения научно-технических терминов. М.: Л., 1941. – С. 88-99; Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. М.: АН СССР, 1961. – С. 77.

³⁹Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – Москва: Академический проект, 2000, – С. 45.

⁴⁰Paluanova X.D. Ekologik terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlari (o'zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tillari misolida). Filol.fan. d-ri. (DS) ... diss. avtoref. – T., 2016. – P. 88.

Tilshunoslikda *termin* tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Sh. Qo'chqorov, "termin kasbiy ma'no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obektlar va ularning o'rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o'zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so'z yoxud birikmalardir"⁴¹ deb, izohlaydi

X.Narxodjayeva esa terminning xos xususiyatlarini quyidagicha sanab o'tadi:

"1) *termin* - umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lgan ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik yoki birikmalardir;

2) *termin* - aniq-narsa predmet, ashyo, mavxum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) *termin* uchun muayyan tarif zarur, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchadan birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda, ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatarga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin"⁴².

Pedagogik sohaga oid terminlari tizimi- "pedagogik" mazmuniy maydoniga birlashuvchi terminlar, bu maydonning muhim tarkibiy qismlaridan biri. Ular o'zbek tilining maxsus sohasi – ilm fanga oid leksik tizim tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilshunosligida terminlarni o'rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi chora tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan. Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham aynan shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim berishni yo'lga qo'yish bilim sohaslarining sezilarli darajada rivojlana borishi ilmiy tafakkur doirasining kengayishi sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin tilda terminlarning ko'payib borishi ularni har tomonlama o'rganish va tartibga keltirish turtki bo'lgan edi. Bunga sabab sifatida shuni aytishimiz mumkinki, termin ilmiy-texnik sohaning ajralmas qismi, shuningdek, uning taraqqiyotini ham belgilab beruvchi muhim omildir.

Bir qator olimlarning terminologiyaga oid ilmiy ishlarini tahlil qilish bilan birga, termin haqida o'z fikrimizni bildirishni lozim topdik: termin –murakkab tuzilishga ega bo'lib, maxsus fan sohasida, aniq sharoitda va maxsus maqsadda foydalaniladigan maxsus leksik birlikdir. U ko'pgina hollarda kasbiy kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillardagi pedagogikaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan. Maskur bobda asosan ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning taraqqiy bosqichlari o'rganilgan va ilmiy-nazariy jihatdan izohlab berilgan.

Bobning "**Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning taraqqiyot bosqichlari**" deb nomlangan birinchi bo'limida pedagogikaga oid terminlarning taraqqiyot bosqichlari aniqlangan.

⁴¹Ko'chimov Sh. Diplomatik til asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – B. 76.

⁴² Narxodjayeva X. Jarayon anglatuvchi terminlarning o'zbek tilida tutgan o'rni. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 11.

Ta'kidlash joiz-ki, pedagogikaga oid terminlarning vatani Yunonistonga borib taqaladi. Xususan, tarixiy manbalarni ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarga nisbatan "pedagog" nomi qo'llangan. Biz bundan bilishimiz mumkinki, "pedagogika" atamasi ilk bor Yunonistonda foydalanilgan.

Demak, izlanishlarimiz natijasiga ko'ra, Ingliz va O'zbek tillarida pedagogikaga oid terminlarning taraqqiy bosqichlari 2ga bo'linadi:

1. Pedagogik terminlar taraqqiyotining Yevropada shakllanish bosqichi.

Pedagogik terminlar taraqqiyotining Yevropada shakllanishi bosqichi o'rta asr G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ikki guruhga bo'lingan va yetti fanni o'z ichiga olgan ta'lim dasturi yuzasidan vujudga kelgan. Bu davrda paydo bo'lgan quyidagi pedagogik terminlariga oid misollarni keltirish mumkin:

<i>Dialektika</i> [yun. dialektike (techne) - suhbat olib borish, bahslashish san'ati]	<i>Dialectics</i> [yun. dialectics (techne) - the art of conversation, debate]
borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta'limot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi. Uning asoschisi Suqrot hisoblanadi;	philosophical doctrine about the origin of existence, its development, and a way of knowing and thinking based on reality. Its founder is Socrates;

Ritorica- notiqlik san'ati nazariyasi. - *Ritorica* - Theory of Public Speaking.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida *ritsar tarbiyasi- knightly upbringing* deb nomlangan, bu atama XII asrga kelib shakllandi va rivojlandi. Ritsar tarbiyasining mazmuni – «ritsarlarga oid yetti fazilat», ya'ni ot minib yurish, qilichbozlik, nayzabozlik, suza olish, ov qila bilish, shashka (keyinchalik shaxmat) o'ynash, she'r to'qish va qo'shiq ayta olish kabi fazilatlarni egallashni nazarda tutardi.

Platonning fikriga ko'ra, u olg'a surgan g'oya, bu davlatning maqsadi oliy ezigulik g'oyasiga yaqinlashishdir: bu g'oya, asosan, *tarbiya* yo'li bilan ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi:

<i>tarbiya</i> -shaxsning axloqiy, ro'hiy, ma'naviy sifatini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon;	<i>upbringing</i> - practical pedagogical process aimed at the formation of moral, spiritual, spiritual qualities of the person.
--	--

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogika ilmining poydevorini qurgan, uning keyingi rivojlanish yo'llarini ko'rsatib bergan, o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini o'qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir. Uning faoliyat davrida quyidagi ta'limga oid terminlarni uchratish mumkin:

<i>"Pan sofिया g'oyasi"</i> - hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish. (pan grekcha — butun, hamma, sofिया — donolik, aqllilik);	<i>"Pan Sophia's idea"</i> - to know everything, to impart knowledge to all. (pan grekcha - whole, all, sofia - wisdom, intelligence);
---	--

<i>Intellekt</i> - insonlarni ma'lumotni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni;	<i>Intellect</i> - the process by which people receive and process information;
---	---

Aqliy tarbiya- bilimni to'plash ko'nikmalari hamda o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalari tushuniladi;

Axloqiy tarbiya- insonlarning oilaga, jamiyatga bo'lgan harakatlari namoyon bo'ladigan xulq-atvorlari, odoblari yig'indisi;

Mental education- comprehension skills, as well as reading, listening, speaking, writing, resource management, and independent work skills;

Moral education- a set of behaviors and etiquettes that reflect the actions of people towards the family and society;

2. Pedagogik terminlar taraqqiyoting O'rta Osiyoda shakllanish bosqichi.

O'rta Osiyo pedagogikasiga oid terminlarning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan yuzlab terminlarni keltirish mumkin. Mahmud Qoshg'ariyning "*Devonu lug'otit turk*" asarida mazkur soha terminlarining anchasini uchratish mumkin. Davrlar o'tishi bilan ular son va sifat jihatdan o'zgarib, tushunchaning mohiyatini aniq ifodalay boshlagan. *Ushuk, ertak, masal, masalgo'y, rivoyat, muallim, maqol* kabilar shular jumlasidandir. Bu singari terminlarning ko'pgina qismi o'zlashma qatlamga (arab, fors-tojik va rus tillari orqali o'zlashgan) mansub. Xususan, arablar istilosidan keyin O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida turli o'quv yurtlari - *madrasalar, maktablar (uy maktablari)* ochila boshlagan. Ayniqsa, IX asrdan keyin yuzaga kelgan "*Ma'mun akademiyasi*"ning o'zi ham bunga misol bo'la oladi. Mana shu sabablarga ko'ra, o'sha davrlardayoq arab tiliga oid qator pedagogik terminlar o'rganila boshlangan. Fikrimizning dalili sifatida Alisher Navoiyning "*Majolis un-nafois*" asarida qo'llanilgan arabcha pedagogik terminlarni hozir ham ishlatilib kelinmoqda: *avroq, varaq, daftar, va'z, dars, jalval, isloh, kitob, kitoba //kitobat//, kutub, madoris, madrasa, maorif, ma'rifat, munozara, mutolaa, nutq* kabi⁴³. IX-XIII asrlarga kelib islomiy ta'limot rivojlanganligi bois, yangi pedagogik terminlar tilga kirib kela boshladi:

religious-philosophical education - diniy-falsaviy bilim berish.

Aynan shu davrda so'fiylik ta'limoti nazariyasi ham keng tarqalgan edi:

the theory of Sufism- so'fiylik ta'limoti nazariyasi, ta'limot turlaridan, diniy-falsafiy oqim hisoblanadi;

1. Ma'mun hukmronligi davrida Bag'dod shahrida "*Baut ul- hukma*" tashkil etildi.

Baut ul- hukma- *House of Wisdom, Donishmandlar uyi* bo'lib, ilm maskani hisoblangan;

Al-Xorazmiy o'zining ta'limga oid falsafiy-ma'rifiy qarashlarini "*Mifotihal ulum*" nomli va boshqa ko'plab asarlarida bayon etgan. Masalan, *Mifotihal ulum- Ilmlarning kalitlari- The keys to the sciences*. Al-Xorazmiy bu kitobida ta'ilmni shunday ta'riflagan: "Men arifmetikaning sodda va murakkab masalalarini o'z ichiga olgan "Al- Jabr va al-Muqobala" kitobini yozdim. Chunki vasiyatnoma yozish, huquq

⁴³Навоий А. Мажолид ун-нафоис.— Тошкент, 1966. XII том. Б. — 188.

ishlari, savdo-sotiq, ariq qazish, geometrik hisoblashlar uchun juda zarur deb hisobladim”⁴⁴. Uning ishlarida ko’plab yana terminlarga duch kelishimiz mumkin:

Al-Jabr va al-Muqobala - tenglamalar va qarshilantirish - Equations and comparisons- matematika faniga oid bo’lgan atama hisoblanadi.

Kitob surat al-arz – yer surati haqida kitob - a book about the image of the earth;

Kitob at-tarix- Tarix kitobi- History book-tarix haqida kitob;

Xorazmiy IX asrning 20-yillarida “*Zij*” ni tuzib chiqdi.

Zij -Astronomik jadval- Astronomical table;

Torolyabiya- quyosh soati- sundial va x.k.

Bu davrning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiyni ulug’lab, sharqda “*Al-muallim as soniy*” deb atagan.

Al-muallim as soniy- second teacher- ya’ni Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim deb atalgan.

Ibn Sinoning eng muhim yirik asari “*Kitobul-shifo*”. Bu asar inson ruhiyatini tarbiyalashga qaratilgan bo’lib, u 4 qismdan iborat: 1) mantiq; 2) tabiiy fanlar; 3) matematika; 4) metafizika:

logic-mantiq

natural sciences-tabiiy fanlar

mathematics-matematika

metaphysics-metafizika.

Ibn Sinoning «*Salamon va Ibsol*», «*Xay’ ibn Yaqzon*» falsafiy qissalarida axloqiy fazilatlar tasviri alohida o’rin egallaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ingliz va o’zbek tillari pedagogik terminologiyasining shakllanishi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Chunki *ta’lim-tarbiya* ishi inson o’z insonligini taniganidan keyin boshlangan va davrlar o’tishi bilan mustahkamlanib borgan. Shunga muvofiq ravishda ona tilimizda ham maxsus terminologik sistema-pedagogika terminologiyasi shakllangan va rivojlana boshlagan. Fikrimizni yozma yodgorliklar, o’tmishdosh shoirlarning she’rlari, yozuvchilarimizning asarlari to’laqonli tasdiqlay oladi. Ta’lim tizimiga xos umum terminlarning kelib chiqishi asosan grek-latin tiliga borib taqaladi. Masalan: *aksiologiya* (insonning qiziqishlari, uning hatti-harakati, xohish-istagini o’rganadigan maxsus nazariy atama); *tahlil* (yunon tilidan olingan bo’lib, biror masalani yaqindan va batafsil o’rganishning mohiyatini, xususiyatlarini, holatini va ularning omillarini bilish); *didaktika* (ta’lim va tarbiyaning nazariy asoslarini belgilovchi pedagogikaning bir qismi); *didaktik vazifalar* (o’quv va kognitiv faoliyatni boshqarish vazifalari); *metod* (grekcha so’z bo’lib, yo’l, usul ma’nolarini ifodalaydi); *inklyuziv* ((tenglik) o’qituvchi bilan o’quvchining o’zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish).

Umuman olganda, pedagogika termini quyidagi talqinlarni qamrab oladi:

- 1) ta’lim muassasalarida ilm rivojini tushuntirish;
- 2) muayyan bir mashg’ulot bilan shug’ullanishni targ’ib qilish;
- 3) ta’lim jarayoni faoliyatini samaradorligini oshirish hodisalari;
- 4) ta’lim berishda zamon bilan hamnafaslik kasb etishi;

⁴⁴ O’zbekiston xalqi tarixi. T ‘Fan’, 1992. –B. 99.

5) o'qish-o'qitish faoliyatida mulohazalarni to'la ifodalash.

Xullas, o'zbek tilshunosligida prof. U.Tursunovning pedagogik faoliyat haqidagi nazariy qarashlari va fikrlari bugungi kun atamashunoslik uchun dolzarb deb, izohlagan. K.M.Musayev esa, "...pedagogik terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shahar deb qiyoslaydi. Pedagogik terminologiya yagona reja asosida qurilsada, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Pedagogik terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos ham murakkablik ham shu bilan belgilanadi"⁴⁵.

Bobning **"Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarning struktur tahlili"** deb nomlangan bo'limida terminologik tizimga xos mavzuiy guruhlarni aniqlangan, ularning tuzilish prinsiplari haqida tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarga tahliliy fikrlar asosida to'xtalib o'tilgan va har ikkala tillarda pedagogika sohasiga oid terminlarni struktur jihatdan tahlil qilingan.

A.A. Reformatskiyni ta'kidlashicha, terminalogiyadagi guruhlanish fan yoki sohaning sistemasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va alohida paradigmaticani hosil qiladi⁴⁶. Shu bois, o'zbek tilshunos olim R. Doniyorov pedagogikaga oid terminlar mavzuiy guruhlarini aniqlashning asosiy uch maqsadini belgilab berdi:

- 1) o'rganayotgan tizimning umumtermin boyligi haqida tasavvurni hosil qilish;
- 2) o'rganayotgan tizimning so'z yasash imkoniyati haqida ma'lumot berish;
- 3) o'rganayotgan tizimning har qaysi mavzuiy guruhdagi o'ziga xos so'z yasash modeli qanday ekanligini aniqlab berish⁴⁷.

Termin tuzilishi jihatdan ixcham, qisqa va qulay bo'lishi kerak.⁴⁸ Pedagogik terminologiya masalalari N.Usmonov tomonidan ikki katta guruhga ajratib ko'rsatiladi:

- 1) ta'lim nazariyasi terminlari;
- 2) tarbiya nazariyasi terminlari.

Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillarda pedagogika sohasiga oid terminlar qiyosiy tarzda o'rganib, bir-biriga o'xshash jihatlari aniqlandi. Avvalo, ingliz tilida to'plangan pedagogika sohasiga oid terminlarni strukturasi xos o'xshashligi (izomorfligi) tasnif etildi:

Ingliz tilida:

1. Oddiy – pedagogik terminlar- *simple - pedagogical terms* (157 ta: *book, paper, school, subject* kabi).
2. Yasama - pedagogik terminlar- *derivative - pedagogical terms* (476 ta aniqlandi: *activeness, learnedly, paralanguage capabilities, reduplication, teacher, reader, writor, implications*).
3. Qo'shma- pedagogik terminlar- *combined pedagogical terms* (174 ta: *right-handed, left-handed, handwriting, whiteboard; blackbord*).

⁴⁵ Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – М.: 1986. – С. 163.

⁴⁶ O'zbek tilining izohli lug'at. III jild – T., 2007. – B. 49.

⁴⁷ Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: авторе. дисс...док филол. наук -Ташкент, 1988. – С. 16.

⁴⁸ Хожиев А., Решетова Л. Ўзбек тили грамматик терминларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент. 1980. – Б. 5.

4. Terminologik iboralar- *terminological expressions* (224 ta: *Be into - be actively interested in sth*- biror narsa bilan faol qiziqmoq; *Take up - start doing a new activity*- yangi faoliyat bilan shug'ullanish; *Read up on - study sth. by reading a lot about it*; *Fall behind - make less progress than other people*).

5. Terminologik birikmalar- *terminological compounds* (316 ta: Active Learning; Authentic Assessment; Blended or Hybrid Course; Culturally Responsive Pedagogy; Experiential Learning).

Pedagogika sohasiga oid terminlarni strukturasi ko'ra tasniflash bu terminlarni orasida qo'shma terminlar va iboralar alohida guruhni tashkil etishiga guvoh bo'ldik. Ma'lumki, qo'shma terminlar ilmiy-texnikaviy terminologiya tizimida eng dolzarb va munozarali masala bo'lib, tilshunoslarning qator ishlarida⁴⁹ qo'shma terminlar umumiste'mol tildagi qo'shma so'zlarga qiyoslangan holda paydo bo'ladi degan fikr ustuvor hisoblanadi.

Ingliz tilida pedagog sohasiga oid qo'shma terminlarni struktur-semantik tarkibini quyidagicha tasniflashni o'rinli deb bildik:

1. Motivlashgan qo'shma pedagogik terminlar. Bunday qo'shma pedagogik terminlar ma'nosini ularning tarkibidagi aniqlovchi komponentning ma'nosidan anglash mumkin. Masalan: *classmate-sinf-dosh, groupmate-guruh-dosh*.

2. Motivlashmagan qo'shma pedagogik terminlar. Bunday terminlarni ular komponentining ma'nosidan aniqlab bo'lmaydi, sababi ularning orasida semantik aloqa mavjud emas, ularning ma'nosini faqat kontekst orqali tushunib olish mumkin. Masalan: *self-consciousness, self-analysis of pedagogical activity, self-study*.

S. Ganiyevning fikricha, terminlarning leksik birliklar sifatida strukturasi, ma'nosi va qo'llanilishi jihatdan uch xil aspektda o'rganilishi mumkin. Shakl jihatidan terminlar birinchi navbatda termin-so'zlar (yakka so'zli terminlar) va birikma terminlar (terminologik so'z birikmalar)dan iborat⁵⁰.

O'zbek tilida pedagogika sohasiga oid terminlarning o'xshashlik tasnifini tadqiqi va tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

1) sodda pedagogik terminlar (247 ta): *qalam, kitob, jurnal, hujjat, ruchka, doska, baho*;

2) yasama pedagogik atamalar (235 ta): *o'qituvchi, tarbiyachi, navbatchi, partadosh, xonadosh, sinfdosh, o'qitish, rag'batlantirish, bahslashish, tarbiyalash, baholash, professionalizm*;

3) qo'shma pedagogik terminlar (74 ta) *mo'yqalam, oraliq nazorat, psixodiagnostika, qaytao'zlashtirish, pedoxentrizm, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika*;

4) juft pedagogik terminlar (115 ta) *o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, axloqiy ta'lim, pedagogik faoliyat, aqliy ta'lim, uzliksiz ta'lim*;

5) murakkab birikmali pedagogik terminlar (997 ta) *davlat ta'lim standarti, o'qituvchining didaktik tizimi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullari, ijtimoiy madaniy tarbiya prinsiplari*.

⁴⁹ Арнольд И. В. Семантическая слова в современном английском языке и методика его исследования. — Л, 1956; Кубрякова Е. С. Семантика производного термина «Внутренняя структура языка». — Москва, 1972. — С. 25.

⁵⁰ Ганиев С. Б. Введение в терминоведение. — М, 1993. — С. 62.

O'zbek tilida pedagogikaga oid terminlarning asosiy qismini ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar va ushbu so'zlarning tarkibidan hosil bo'lgan ekvivalent pedagogik terminlar tashkil etadi. Masalan: *motivatsiya, trening, brifing, akkreditatsiya, aktiv*.

«Terminologik birikma bir nechta komponentdan iborat bo'lib, ular sinonimlarga almashishlari mumkin»⁵¹. Ingliz va o'zbek tilida *yasama - pedagogik terminlar* mavjud va ular pedagogika sohasida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Chog'ishtirilayotgan tillardagi pedagogik terminologik birliklar turli usullar: 1) *suffiksatsiya va affiksatsiya* 2) *prefiksatsiya*; 3) *parasintetik*; 4) *pintaktik va abreviaturalar* yordamida hosil bo'ladi.

O.Axmedov tildagi affiks va qo'shimchalar haqida quyidagi fikrni bildirgan: "...affikslar orqali so'zlar yasaladi, qo'chimchalar orqali grammatik shakllar hosil qilinadi"⁵².

Suffiksatsiya usuli - asosan termin asosini o'zak va so'z yasovchi qo'shimchalar tashkil qiladi. Terminlarning kelib chiqishini aniqlashdagi qiziqish avvalambor ularning affiksial tarkibini ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan. Ko'p hollarda ularning yunon, lotin, fransuz va Yevropa boshqa tillaridan o'zlashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Asosan ingliz tilida quyidagilar: *-er (worker, reader, teacher, writer, learner)*, *-ing (writing, reading, speaking)*, *-dom (wisdom)*, *-ship (mastership)*, *-ish (English, Spanish)*.

Pedagogik terminlar yasashida lotin, fransuz, yunon va boshqa tillardan o'zlashtirilgan suffikslar ham uchratishimiz mumkin. So'z turkumlari bo'yicha alohida ajratilgan lotin suffikslariga quyidagi misollarni keltiramiz: ot yasovchi qo'shimchalarga: *-ion (opinion)*, *-age (language)*; sifat yasovchi qo'shimchalarga: *-able (understandable)*, *-ate (accurate)*, *-ent (absent)*, *-or (major)*, *-al (cordial)*, *-tive (native)*.

Ingliz tilidagi yunoncha sifat yasovchi suffikslarga quyidagilar kiradi: *-ic (ethnic)*, *-al (ethical)*, *-ical (technical)*.

Pedagogik terminlar hosil bo'lishida yarim affiks tushunchasi mavjud. Ular: *-logy (phraseology)*, *-graph*, *-gram (telegram)*, *-logue*, *-log (monologue, dialogue)* va h.k. Shuningdek, terminlar yasashida fransuz tilidan o'zlashtirilgan suffikslar ham keng o'rin olgan: ot yasovchi: *-yepse (deference, intelligence)*, *-ment (development)*.

Prefikslar ham pedagogika sohasida terminlarini hosil qilishda juda muhim: *mis-, un-, be-, out-, up-, under-, over-, with-tub prefikslardir. dis-, de-, in-, il-, ir-, non-, cor-, re-* kabilar. Ularning aksariyati lotin va fransuz tilidan o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, roman tillaridan *extra-, pre-, re-, sub-, ultra-, counter-, inter-, semi-, trans-, post-, super-, -upper* kabi prefikslari va yarim prefikslar ham kirib kelgan.

Ingliz tilida pedagogika sohasiga oid eng sarmahsul suffikslarni tahlil qildik va quyudagicha xulosaga keldik:

-tion (78 ta termin aniqladik: *consultation, collaboration, education, inclusion, evaluation, accommodation, collection, adoption, preparation, information, participation, description, translation, addition* va h.z.);

⁵¹ Трифонова Е.Н. Структурные особенности полисемантических банковских терминов в английском языке. // Филология и литературоведение. – 2001. – С. 113.

⁵² Axmedov O.C Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol.fan.dok. ...diss. – Toshkent, 2016. – B. 73.

-y (79 ta termin aniqladik: *generally, faculty, flexibility, typically, responsibility, systematically, minority, secondary, primary, accordingly, interdisciplinary, proficiency, quality* va h.z.);

-ics (37 ta termin: *aesthetics, anacreontics, esthetics, gynocritics, phonetics, poetics, semantics, stylistics*);

-logy (25 ta termin: *analogy, apology, grammatology, morphology, narratology, phenomenology, philology, phonology, terminology, typology*);

-ment (26 ta termin: *assessment, achievement, development, employment, document, improvment, environment, movement*).

Affiksatsiya usulida turli soʻz yasovchi qoʻshimchalar (old va ort qoʻshimchalar)ni qoʻshish orqali yangi terminlar hosil qilish nazarda tutiladi. Masalan: **incorrect** - notoʻgʻri, **invisible** - koʻrinarsiz, tushunarsiz;

Hozirda oʻzbek tili *pedagogika* sohasiga oid terminlarni yasashda *-lash* affiksi faoldir. Ularning muhim jihati shundaki, ular oʻzlashma terminlar singari tizimga singib ketgan. Masalan: *baho+lash, koʻchir+ish, gplash+ish, tekshi+ish* va h.k.

Ingliz tilidagi *-tion, -ing, -ion* affikslarning oʻzbek tilidagi vaziyatga oid holatni ifodalovchi *-sh (-ish), -ash* affikslari faolligini guvohi boʻldik.

Ingliz tili pedagogik terminlarining hosil boʻlishida soʻz turkumlaridan **ot, sifat, feʼl va ravish** sermahsul ekani aniqlandi. Bundan tashqari, soha terminlarining yasalishi (**ot, sifat, feʼl va ravish**dan tashkil topgan terminlar modellarining hosil boʻlishi)da quyidagi mahsuldor soʻz yasovchi qoʻshimchalarni koʻrib chiqishimiz mumkin:

ion – *verbalization* - “artikulyatsion apparat yordamida soʻzlarni, nutq tovushlarni keltirib chiqarish”; *descalation*-“maktabsizlantirish, maktabni ijtimoiy institut sifatida tugatish va uni yoshlarni ijtimoiylashtirishning noanʼanaviy shakllari bilan almashtirish konsepsiyasi”; *translation*- “tarjima”; *articulation*- gapirish; koʻpincha talaba nutqining ravshanligi yoki tushunarli boʻlishi haqida gapiradi. Artikulyatsiyaning buzilishi nuqsonlar (tovushlarni chiqarib tashlash), almashtirishlar ("tish" uchun "teef"), buzilishlar (uzish) yoki qoʻshimchalarda ("yugurish" uchun "yugurish") koʻrsatiladi”;

ism - *detocentrism*- “bolalarning markazlashuvi, tarbiya konsepsiyasi hisoblanadi”, *dimorphism* - “insonning organik xususiyatlarini ikki xilga fundamental boʻlishi”, *paternalism* - “rahnamolik qilish, himoya qilish, kichiklarga, vasiylik ostidagilarga gʻamxoʻrlik qilish”; *constructivism* - “Odamlar qanday oʻrganishi haqidagi izlanishlarga asoslangan oʻqitishga yondashuv”;

ive - *interactive* - “interfaol, oʻzaro harakat qilmoq, suhmat, muloqotda boʻlmoq”, *integrative* - “taʼlim muassasasi bitiruvchilarining tayyorgarligini yakuniy tashxis qilishni umumlashtirish maqsadida qiyinlik darajasi oʻsib boradigan test shakllari”;

ent - *assessment* - “baholash oʻquvchilar biladigan va qila oladigan narsalarni bilish, oʻqituvchilar va maktablarni koʻrsatish uchun maʼlumot toʻplash ular yaxshilanishi kerak boʻlgan joylar (rasmiy va norasmiy testlarni ham oʻz ichiga olishi mumkin)”; *enrichment* - “Oʻrganish uchun qimmatli va qiziqarli boʻlgan - bu "bilish yoqimli", lekin odamlar bilishi shart emas. "Boyitish" atamasi, shuningdek, ota - onalar farzandlarining maktabdan tashqari bilimlarini toʻldirish uchun qilgan saʼy -

harakatlariga ham qo'llaniladi, masalan, fan va san'at muzeylariga sayohatlar, raqs, san'at yoki sport mashg'ulotlari, ta'til, mahalliy kutubxonalarga tashrif va mahalliy teatrlarga tashrif, orkestrlar yoki baletlar”;

gy - *etiology* - “kasallikning sababi yoki kelib chiqishi”; *typology*-“tipologiya, bilish metodi bo'lib, uning asosida obyektlar tizimini taqsimlash va ideal modellar yoki tiplarning yordamida ularni keyingilar uchun guruhlariga ajratish, shuningdek topologik taqsimlash natijasi yotadi”; *toxicology*-“taktilli munosabatlar haqida ilm”.

Quyidagi qo'shimchalar **sifat**-terminlarni hosil qilishda faol qo'llaniladi:

ive - *active*-“faol”; *passive*-“faol emas”; **ible**- *visible*-“ko'rinarli”; **able**-*understandable*-“tushunarli”;**ar**-*popular*-“taniqli”;**ous**-*illustrious*-“atoqli”;

Fe'l so'z turkumiga oid soha terminlarni hosil qilishda qo'llaniladigan qo'shimchalar quyidagilar: **ate** - *activate* - “faollashtirish”; *investigate* - “tekshirish”; **ize** - *mobilize* - “safarbar etmoq”; **ing**-*summarizing*-“xulosa chiqarish”;

Ot so'z turkumiga oid soha terminlarini hosil bo'lishida keng qo'llaniladigan qo'shimchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

out - *outcomes* -“ta'lim natijalari”; **ill**-*skill* -“mahorat”; **ty** - *responsibility*-“javobgarlik”; **ion** - *regression* -“regressiya, bolalik bilan bog'liq bo'lgan psixologik jarayon”; *acceleration*-“keyingi 150 yillar ichida bolalarning jismoniy rivojlanishida ko'zga tashlanadigan jadallashish, jumladan, bo'yining o'sishi, og'irligi”; *conversation*-“suhbat”; *acculturation* - “bola tomonidan boshqa bir yangi madaniyatni o'zlashtirish jarayoni, o'zlashtirilgan madaniyatning nisbati”;

Perception- “Idrok, tuyg'ular yordamida (eshitish, ko'rish, hidlash, teginish, ta'm) obyektlar yoki fazilatlarni tushunish aqliy qobiliyati”;

Idrokning quyidagi turlari bor:

Visual perception; Auditory perception; Haptic perception;

In - *informal* - “infodars; *informational education* - “informal ta'lim”.

gy - *acmeology* - “kattalarning o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini bilimni oshirish qonuniyatlari haqidagi ilm”; *axiology* - “ta'lim qadryati”

ism - *realism; agrammatism;*

Ingliz tili pedagogik faoliyatga oid terminlarda **fe'llar** bilan faol birikuvchi old (prefikslar) qo'shimchalar esa quyidagilar:

Accoun - *Accountability; Accommodations;*

Appren - *Apprenticeship* - “shogirdlik qilish;

Con - *Constructivism*- shaxsning bilimi; *Consultation*-“Fikrlarni izlash”;

Quyidagi old (prefikslar) qo'shimchalar asosan **sifatlar** bilan birikadi:

multi - *multidisciplinary* -O'quv dasturlarini integratsiyalashtirishga qaratilgan yondashuv birinchi navbatda turli fanlarga va xilma -xillikka bog'liq. **non**- *non-formal education*- “norasmiy ta'lim”; *non-cognitive skills*-“kognitiv bo'lmagan ko'nikmalar”; **dis**- *disaggregated*- sana, ma'lumotni butun ro'yxatga olish o'rniga talabalar guruhiga bo'lingan holda taqdim etish.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ingliz tili pedagogik terminologiyasida so'z yasash usullarining boshqa terminologiyalarga qaraganda o'ziga xos jihati mavjud. Bunda terminlarning morfologik usul orqali hosil bo'lishida affiksatsiyaning o'zni beqiyos bo'lib, unda so'z turkumlarining ishtiroki ham ancha faoldir. Murakkab sifatli

birikmalarda o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga qo‘shma so‘zlarning ham ifodalanishini uchratish mumkin: Masalan: **standart-** *standardized* - “standardlashgan” yoki **standardization of education** - “ta’limni standartlashtirish” ma’nosini ifodalaydi. Shuningdek, fe’llarda **in** – *influence*-“ta’sir ko’rsatish” old qo‘shimcha (prefiks)sini ko‘rishimiz mumkin. Pedagogik terminologiyada **kompozitsion** usul, ya’ni *qo‘shma pedagogik* atamalar deb ham atashimiz mumkin. Bu usul ham ancha mahsuldor bo‘lib, o‘zak so‘zga bir, ikki yoki undan ortiq so‘zlarni qo‘shish natijasida yangi so‘zlarni hosil qilish tushuniladi. Masalan: **Benchmarks** - “ma’lum bir yoshdagi, sinfdagi yoki rivojlanish darajasidagi talabalardan kutilayotgan o‘quvchilar yutuqlarining aniq darajasini batafsil tavsifi; har bir sinf uchun belgilangan ilmiy maqsadlar;

Prefiksatsiya usuli- tahlillarimiz natijasida pedagogikaga oid atamalarni prefikslar bilan yasashi ham talaygina ekanligiga guvoh bo‘ldik. Prefikslar yordamida yasalgan pedagogik terminlarini so‘z turkumlariga ajratmasdan tahlil qilamiz. Chunki suffikslardan farqli o‘laroq prefikslar ham ot, ham sifat so‘z turkumiga xos terminlarni yasashida bir xil foydalaniladi.

Izlanishlarimiz davomida terminlar yasashda 25 dan ortiq prefiks va yarim prefikslardan foydalanilishining guvohi bo‘ldik. Quyida o‘zlashtirilgan tub prefikslarga misollar keltiramiz: *at-* (lot.), *ana-* (grek), *com-/con-* (lot.), *so-* (lot.), *de-* (lot.), *des-* (lot.), *di-*(rpek), *dis-* (lot.), *exo-* (grek), *half-* (ing *hyper-* (grek), *im-/in-* (lot.), *inter-* (lot.), *intra-/intro-* (lot.), *macro-* (grek), *mono-* (grek), *morpho-* (grek), *neo-* (grek), *off-* (ing.), *over-* (ing.), *pun-* (grek), *para-* (grek), *poly-* (grek), *post-* (lot.), *pre-* (lot.), *pro-* (lot.), *re-* (lot.), *semi-* (lot.), *sub-* (lot.), *super-* (lot.), *supra-* (lot.), *syn-* (grek), *trans-* (lot.), *un-* (ing.), va boshqalar.

Aytish mumkinki, keltirib o‘tilgan prefikslarning aksariyati lotin va yunon tillaridan o‘zlashtirilgan. Tub ingliz prefiks / yarim prefikslariga *ip-*, *off-*, *over-*, *half-* kiritishimiz mumkin. Mana shu prefikslar orqali 3% dan ozroq pedagogik atamalarni hosil qilinganligini ko‘rish mumkin.

Parasintetik usul. Parasintetik so‘z hosil qilish- bu, tayanch bo‘lgan so‘zga bir paytning o‘zida prefiks va suffiks qo‘shilishi natijasida yangi so‘z hosil qilinishi tushuniladi. Masalan, *professional, enrichment, assessment, inclusion, intervention*. Bu usul otdan sifat hosil qilishda qo‘l kelgan. Masalan: *Instructional minutes - the amount of time the state requires teachers to spend providing instruction in each subject area*. (O‘quv daqiqalari - davlat tomonidan o‘qituvchilardan har bir fan bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga sarflash talab qilinadigan vaqt miqdori). *Professional development* - programs that help teachers or administrators acquire the knowledge and skills they need to perform their jobs successfully. (Kasbiy rivojlanish- o‘qituvchilar yoki ma’murlarga o‘z ishlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga yordam beradigan dasturlar). Morfologik usuldan farq qilgan holda, parasintetik usulda ham prefiksatsiyadan ham suffiksatsiyadan foydalaniladi. Pedagogika sohasiga oid terminlarini yasashda parasintetik usuldan foydalanilgan atamalarni aytadigan bo‘lsak:

Acce - accelerated learning, accessibility plans, accountability, accreditation, accreditation of prior learning;

Co-Cognitive neuroscience, Cognitive science, Collaborative learning, Competence, Constructivism;

Extra- Extra-curricular activities;

In- Informal learning, Information, Intended curriculum;

Multi- Multidisciplinary approach, Multi-grade/multi-class teaching, Multilingual education;

Non- Non-cognitive skills, Non-formal education;

Out- Outcomes, Outcomes-based education.

Ingliz tilshunosligida parasintetik usul yordamida hosil bo'lgan terminlar 8%ni egallaydi. Aksariyat qismi roman va yunon tillaridan o'zlashtirilgan prefiks va suffikslar orqali yasalgan.

Sintaktik usul. Murakkab yasalgan pedagogika sohasidagi terminlarga ot so'z turkumli va sifat so'z turkumli kompozitlarni misol keltirishimiz joizdir. Zeroki, ushbu turdagi pedagogik atamalar ingliz va o'zbek tilshunosligida ham uchraydi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadi-ki, ingliz tilida: *AdjN*(sifat+ot) tarkibli pedagogik terminlar 45% ni, o'zbek tilida *sifat+ ot* esa 48% ni tashkil etadi. *NV*(ot+fe'l), *VN*(fe'l+ot), *NN*(ot+ot), *VV*(fe'l+fe'l), *NPV*(ot+predlog+fel):

1) *AdjN* – 186 taga yaqin termin: Secondary education- O'rta ta'lim, Spiral curriculum- Spiral o'quv dasturi, Tertiary education- Oliy ta'lim; Vocational education- kasbiy ta'lim, Basic education;

2) *NV*- ushbu tarkibli 87 ta atamani aniqladik: Time allocation- Vaqtni taqsimlash;

3) *VN*- ushbu turli atamalarni 78 tasini aniqladik: Achieved curriculum- Erishilgan o'quv dasturi, writing skill, teaching methods;

4) *NN*- Adult education, Cognitive science, Formal education,

5) *VV*- Blended learning, Block teaching;

6) *NPV*- Validation of learning outcomes- O'rganishni tasdiqlash natijalar, Transfer of learning- Ta'limni uzatish;

Ushbu o'rinda quyidagi asosiy tushunchalarni qayd etib o'tish lozim:

a) Otlar yasalishi.

1. ot+ot *homeschooling* - “uyda ta'lim, bolalarni davlat yoki xususiy maktablarga berish o'rniga ularni uyda o'qitish”; *white bord* – “oq doska”; *green bord* – “yashil doska”; *school area* – “maktab maydoni”.

2. Ingliz tilida verb+er=noun holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'zbek tilidagi fe'l+chi=ot holatiga mos keladi, qiyoslanayotgan tillarni yana bir o'xshash holatini ko'rishimiz mumkin. Masalan: *teacher* - o'qituvchi; *worker* - ishchi; *reader* - kitobxon; *writer* - yozuvchi; *speaker* — so'zlovchi;

3. verb+or=noun (Bunday holatda ham o'zbek tilidagi –chi qo'shimchasiga to'g'ri keladi). Masalan: *educator*-o'qituvchi; *descriptor*- tasvirlovchi; *inventor*-ixtirochi; *animator*- “maktabdan so'ng bolalarning dam olish faoliyatini tashkil etadigan tashkilotchi, ushbu termin Angliya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida qabul qilingan”;

4. verb+ment=noun izlanishlarimiz davomida ingliz tilida shu holatni ham uchratdik. Masalan: *Enrichment*- “(o'quv kurslariga nisbatan) *boyitish*- bitiruv uchun

zarur bo'lgan kurslardan tashqari qo'shimcha kurslar" "*Alignment* –baholar, o'quv rejasi, ko'rsatma yoki darslik kabi o'quv faoliyati ashyolari, o'qituvchilarga ta'lim berish va ularni bilimini mustahkamlash, hisobot berish, natijali hisobotlarni nazorat qilish va mustahkamlashdir. *Achievement test*- (a test to measure a student's knowledge and skills) talabaning bilim va ko'nikmalarini o'lchash uchun test"⁵³.

5. Ingliz tilida *inter+verb=noun* yoki *inter+word=noun* holatdagi pedagogik atamalar ham talaygina. Masalan: *interviews*-“og'zaki savol-javob yordamida ma'lumotlar olish usuli, u ikki turga ajratiladi: erkin (suhbatning mavzusi va shakllining cheklanmaganligi) hamda standartlashgan (shakli bo'yicha oldindan berilgan savollar anketasiga yaqin bo'lgan);

Barcha terminologiya sohasida uchragani kabi pedagogik atamalarning ham abbreviaturalari keng tarqalgan. Qiyoslanayotgan tillardan ko'rib chiqishimiz natijasi o'laqor ingliz tilida pedagogik atamalarning abbreviaturalari o'zbek tiliga qaraganda ko'p ekanligiga guvoh bo'ldik:

IEP- *Individualized Education Program*- *Individual ta'lim dasturi*;

IDEA- *Individuals with Disabilities Education Act*- *Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim to'g'risidagi qonuni*;

LEP students- *See limited English proficient students*- *Cheklangan ingliz tilini biladigan talabalarga kuzatish*;

NAEP-*National Assessment of Educational Progress*- *Ta'lim taraqqiyotining milliy bahosi*;

NBPTS- *National Board for Professional Teaching Standards*- *Professional o'qitish standartlari milliy kengashi*;

NEA-*National Education Association*- *Milliy ta'lim assotsiatsiyasi*;

NJASK- *New Jersey Assessment of Skills and Knowledge*- *Yangi ko'nikmalar va bilimlarni baholash*;

DTM-*davlat test markazi*;

DTS-*davkat ta'lim standarti*;

OTM-*oliy ta'lim muassasalari*;

XTM- *xalq ta'limi muassasalari*.

Bobning uchinchi bo'limida **pedagogikaga oid terminlarning semantik xususiyatlari** tahlil qilingan. Pedagogikaga oid terminlarning semantikasini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Shaxsga oid pedagogik terminlar.
2. Muassasaga, tashkilotga oid pedagogik terminlar.
3. O'quv qurollariga oid pedagogik terminlar.
4. Jarayonga oid pedagogik terminlar.

Shaxsga oid pedagogik terminlar. Pedagogika sohasida chog'ishtirilayotgan tillarda shaxsga oid atamalar talaygina, ularni quyidagi turlarga ajratib ta'riflash o'rinlidir:

Ta'lim oluvchilar- *Learners*: o'quvchi-*pupil*, talaba-*student*, abutrent- *abutrent*;

⁵³ <https://dictionary.cambridge.org/ru/>

Ta'lim beruvchilar- Educators: o'qituvchi- teacher; assistent- assistant; stajyor o'qituvchi- internship teacher; kata o'qituvchi-senior teacher; falsafa doktori- doctor of philosophy; fan doktori- doctor of science; professor- professor, dotsent- docent;

Ta'lim maskanlar faoliyati va nazorati bilan shug'illanuvchilar- Person involved in the activities and control of educational institutions; guruh murabbiyi- sinf rahbar-tutor; dekan muovinklari- deputy dean; dekanlar- dean; o'quv bo'limi boshlig'i-head of Academic Affairs; ilmiy bo'lim boshlig'i-head of scientific department; prorektorlar-vice-rectors; rektorlar- rectors; direktorlar- directors.

Pedagogik faoliyat yuritadigan tashkilot va muassalar har ikkala tilda ham kuzatiladi. Bular, avvalo, ta'lim tizimi bilan bog'liqdir. O'zbekistondagi ta'lim tizimi va unda faoliyat yurutadigan muassasalarni ko'rib chiqamiz:

- maktabgacha ta'lim - *preschool education*; Maktabgacha ta'lim muassasasi - *Preschool*;

- umumiy o'rta ta'lim - *general secondary education*; Bu xalq ta'limiga qarashli maktabkar –*Schools*;

- maktabdan tashqari ta'lim- *extracurricular education*; Bunga maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, ya'ni bolalar va o'smirlar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi ijtimoiy tashkiliy va instruktiv-metolik muassasalar kiradi. Maktab bilan yaqindan bog'lanib ish yuritadi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari (*palaces of children's and teenagers' creativity*), uylari (*house*), klublari va markazlari (*clubs and centers*), bolalar-o'smirlar sport maktablari (*children and youth sports schools*), san'at maktablari (*art schools*), musiqa maktablari (*music schools*), studiyalar (*studios*), kutubxonalar (*libraries*) va boshqa muassasalar kiradi;

- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi - *secondary special vocational education*; Bu o'rta maxsus kasb hunar o'rgatuvchi maktablar, O'MKHT-SSVE maktablari deb yuritiladi;

- oliy ta'lim - *higher education*; Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchi – Institutlar *Institutions* va Universitetlar- *Universities*;

- oliy ta'limdan keyingi ta'lim - *postgraduate education*; Ilmiy daraja beruvchi muassasalar yani falsafa doktori (PhD), fan doktori (Doctor of Science);

- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash - *training and retraining*; pedagog kadrlarni va xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlovchi va malakasini oshirish institutlari va universitetlar qoshida tashkil etilgan markazlar;

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim davlat - *public schools*, xususiy- *private schools* va uy-home *schools* maktablarida amalga oshiriladi.

Preschool - maktabgacha ta'lim, *Pre-kindergarten*-bolalar bog'chasi; 3-5 yoshdagi bolalar uchun.

Amerikada 3 xil ta'lim bor:

Cumpulsory education - majburiy ta'lim; *Higher education* - oliy ta'lim; *Continuing education* - uzluksiz ta'lim;

Majburiy ta'lim maktablarda amalga oshiriladi va maktablar ham quyidagi turlarga ajratilgan.

Elementary school - boshlang'ich maktab; Bog'chadan 5-6 yoshdan boshlab, 5-sinfgacha ya'ni 10-11 yoshgacha o'quvchilarni o'z ichiga oladi;


Middle school – o'rta maktab, *Junior high school* – Yoshi katta o'quvchilar maktabi bo'lib – 6-sinfdan 8-sinfgacha, ya'ni 13-14 yoshgacha o'quvchilar uchun;

High school - Yuqori maktab bu *senior high school* - oliy darajali maktab-*Freshman/ 9th grade*-Birinchi kurs talabasi/9 –sinf (15-16 yosh); *Sophomore/10th grade*-Ikkinchi kurs/10 –sinf (15-16 yosh); *Junior/11th grade*-11-sinf(16-17 yosh); *senior/12th grade*-katta 12 sinf (17-18 yosh);

Jarayonga oid pedagogik terminlarga quyidagilarni misol keltiramiz:

O'quv jarayoni-study process; *tahlil jarayoni*- analysis process; *o'rganish jarayoni*- learning process; *o'rgatish jarayoni*- teaching process; *tajriba*- experience; *tarjima jarayoni*- translating process; *tahlil qilish jarayoni*- analysis process; *ta'lim jarayonidagi dasturlar*- programs in education processes; *baholash jarayoni*- assesment process.

Quyudagi chizmada jarayonga oid pedagogik terminlar va ularni tasnifini qiyoslab ko'rsatilgan:



Ushbu chizmaga binoan pedagogik jarayonlarga oid terminlar vazifalar, omillar, darajalar va choralar kabi turlarga ajratilib, ularning har biri tarkibiga kiritiluvchi terminlar ro'yxati keltirilgan.

Tahlillarimizga asoslangan holda pedagogikaga oid terminologiyaning yetakchi soha va yo'nalishlari miqdoriy jihatdan quyudagicha aks etganini guvohi bo'ldik.

Pedagogikaga oid terminlogiyaning yetakchi soha va yo‘nalishlari

1-jadval.

№	Sohalar	Miqdor absolyut raqamlarda	Miqdor (%) da
1.	Maktabgacha tarbiya sohasi	190	18,7 %
2.	Boshlang‘ich va o‘rta umumiy ta‘lim sohasi	603	59,5 %
3.	O‘rta-maxsus va kasbiy ta‘lim sohasi	90	8,8 %
4.	Oliy ta‘lim sohasi	80	7,9 %
5.	Oliy ta‘limdan keyingi bosqich sohasi	50	4,9 %
6.	O‘quv fanlari va ularning mazmuni sohasi	188	31,2 %
7.	Maktab jihozlari sohasi	96	15,9 %
8.	Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar sohasi	55	9,1 %
Jami:		1013	100 %

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi pedagogika sohasiga oid terminlarning tarjima muammolari**” deb nomlanadi. Ushbu bob ingliz va o‘zbek tillardagi pedagogikaga oid terminlarning tarjima muammolariga bag‘ishlangan. Tarjima — bir tildagi yozma yoki og‘zaki matnda ifodalangan ma‘lumotlarni boshqa tildagi ekvivalent matn orqali uzatish jarayoni va natijasidir. Ko‘pgina tadqiqotchilar tarjimashunoslikning rivojlanish mantig‘ini ko‘p darajada – ta‘riflardan, o‘zaro munosabatlarga asoslangan holda aks ettiradilar. Lingvistik belgilar orasidagi, markaziy tushunchasi matn bo‘lgan ta‘riflarga va tarjimini sof lingvistik operatsiyaga qisqartiruvchi ta‘riflardan tortib, ko‘rib chiqilayotgan mavzu va kommunikativ vaziyatlarni o‘z ichiga olgan holat ham tahlil qilindi.

V.V.Vinogradov ta‘rifiga ko‘ra, “so‘z - bu an‘anaviy ravishda qat‘iy ma‘lumotlar to‘plamini o‘z ichiga olgan tilning asosiy birligi bo‘lib, fikrlarni shakllantirish va gapning bir qismi sifatida xabarlarini yetqazish uchun xizmat qiladi”⁵⁴. Uning fikricha, so‘z ikki xil ma‘lumotni o‘z ichiga oladi: Ular *ekstralingvistik* va *lingvistikdir*. Ekstralingvistik ma‘lumotlarga V.V.Vinogradov semantik, hissiy-ekspressiv, ijtimoiy-madaniy va boshqalarni belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, so‘z o‘zida tashuvchi va tarjima qilishda e‘tiborga olinishi lozim bo‘lgan ekstralingvistik ma‘lumotlar turlaridan biri uning etimologik komponentidir. Qoida tariqasida, tarjima sohasida so‘zning etimologik komponenti faqat tarjimonning etimologik literalizm kabi xatolari haqida gap ketganda muhokama qilinadi. Bunda bir qancha tillar uchun umumiy bo‘lgan etimologik komponent tarjimonni chalg‘itib, uning xatolariga olib keladi.

Bobning birinchi bo‘limi “**Ingliz va o‘zbek tillardagi pedagogikaga oid terminlarning tarjimada muammolari**”ga bag‘ishlangan. Keyingi paytlarda tarjimada adekvat tarjimaga intilish bilan birga, madaniy komponent, manba tilning voqeliklari, shuningdek, uslubiy, sintaktik va leksik xususiyatlar hisobga olina boshladi. Bizningcha, bu bilan bir qatorda tarjima samaradorligini oshirish uchun so‘zning etimologik komponentini ham hisobga olish zarur.

⁵⁴ Vinogradov V.V. Основные этапы истории русского языка// Избранные труды. История русского литературного языка. – Москва, 1988. – С. 10-14.

Shu bois, pedagogika nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, qiyoslanayotgan tillarda so'zlarning quyidagi etimologik holatiga ko'zimiz tushadi: o'zbek tilida so'zlar bilan tashqi o'xshashlikka ega (tovush va imlo) bo'lgan, lekin ma'nosi hamisha ham bir-biriga mos kelmaydigan so'zlar: *o'qimoq, kitob o'qimoq, universitetda o'qimoq* deb, tarjima qilishimiz mumkin. Biroq ingliz tilida ularning farqlanadigan jihatlari mavjud:

- 1) ko'plikda yangi ma'no kasb etgan so'zlar;
- 2) ingliz tillarida birlik va ko'plik shakllarida qo'llanilishi mos kelmaydigan atamalar.

Etimologik tahlil quyidagi muammolarni hal qilish uchun xizmat qiladi:

- tahlil qilinayotgan so'zni turdosh tillardagi tegishli so'zlar bilan solishtirish, ularning asosiy tilgacha bo'lgan rasmiy va semantik tarixini aniqlash;

- ma'lum bir til doirasida so'zning oldingi tuzilmalari bilan solishtirganda morfemik va so'z yasash tahlilini amalga oshirish (lingvistik taqqoslash);

- qarz olish manbasini aniqlash.

Tarjima qilish jarayonida asl tildagi xar bir so'zni yoxud terminni o'z o'rnida to'g'ri "qo'llash va ularning funksional muqobilligini adekvat shaklda ta'minlash tarjimondan katta mahorat talab etadi. So'z va terminlarning eng optimalini tanlashda matniy xolat nuqtai nazaridagina emas, balki ularni leksik-semantik, gramatik, stilistik jihatdan muvofiqlashtirish tarjimada muhim ahamiyatga egadir. Tarjima qilinayotgan asl tildagi so'zlarning «qo'llanishiga ko'ra ularda mujassam bo'lgan turli ma'no qirralari ham tarjimada o'z o'rnini topmog'i lozim.

Taniqli tarjimashunos G. Salomov fikricha tillardan-tillarga tarjima (qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so'zlashsalar ham, ammo ularning tafakkur qonunlari bir bo'ladi.

Terminlarning tarjimadagi aniqligi o'ta muhim hisoblanib, sohaga oid butun matnning tarjima adekvatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tarjima jarayoni o'z xususiyatlariga ko'ra qiyosiy tipologiyaga o'xshaydi, ya'ni bunda tarjimon boshqa biror tilda ifoda etishning yangi shakllarini qidiradi, chunki tarjima o'sha ma'noning aynan o'zini saqlagan holda boshqa tilda qayta yaratish demakdir. Bu fikrning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan A. Foster o'z fikrini shunday izohlaydi. "Tarjima jarayoni biror matnning, matndagi til birliklarining ma'lum mazmunini bir tildan boshqa tilga to'g'ri transferensiyalash (ag'darish)dir" desa, J. Ellis ham ushbu fikrni ma'qullagan holda "tarjima bir tilda bayon etilgan fikrning ikkinchi tildagi ifodasi" deb, ta'kidlaydi.

Tilning leksik tizimi nafaqat eng kam o'rganilgan, balki tashkil etilishi va tuzilishi jihatidan ancha murakkab. Bu tizim turli xil munosabatlar bilan bog'langan juda ko'p sonli elementlarni o'z ichiga oladiki, ularning tizimlilikini tasavvur qilish qiyin yoki ko'pincha shubhali ko'rinadi. Unda tartibsiz hodisalar mavjud bo'lib, ularning tavsifi tashqi, ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan juda ko'p qoidalarni talab qiladi. Bu murakkabliklarning pedagogikaga oid atamalarining mikrotizimiga ham xos bo'lib, u turli grammatik tizimlar tillari material bo'yicha qiyosiy tadqiqot olib borilganda yanada kuchayadi.

O'zbek va ingliz tillarining lug'at materiallarini va ularning o'zaro munosabatini qiyosiy o'rganish turli strukturali tillarni qiyosiy tipologik o'rganishni yanada

rivojlantirish uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, Qiyoslanayotgan tillarda, tilshunoslikda yangi til faktlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda turli grammatik tizimlardagi tillarni, shuningdek, bir xil grammatik tuzilishga ega tillarni qiyosiy o'rganishda tizimli usul tobora ko'proq qo'llanilib, uni lingvistik tadqiqotning zamonaviy usullaridan biri deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, tilning ayrim qatlamlarini o'rganishda bu usul har doim ham bir xil darajada samarali emas. Xususan, tilning lug'at materiallarini o'rganishda tizimli usul har doim ham qulay emas, chunki leksik materialni tizimli o'rganish tilning boshqa qatlamlari materiallariga qaraganda ancha qiyin. Til jihatlarini tizimli o'rganish ko'p jihatdan komponentli tahlil qilish usuliga ham uzviy bog'liqlik kasb etadi. U har qanday til birlikning ma'no mazmuni semantik komponentlari, so'z yoki xususiyatlardan tashlik topgan degan fikrga tayangan holatda izohlanadi. Masalan, *pedagog* so'zi bir nechta semantik tuzulishga ega:

1) "xodim belgisi"; 2) "ta'lim beruvchi" 3) "tarbiyalovchi" 4) "boshlang'ich sinf o'qituvchisi";

Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki, bir tomondan, etimologiyani bilish, shuningdek, maqsadli tilda ekvivalent so'zning asl ma'nosi va ko'pincha tarixiy omillar bilan belgilanadigan qo'llanish doirasi aniqroq tanlash imkonini beradi.

Bobning ikkinchi bo'limida **Ingliz va o'zbek tillaridagi pedagogikaga oid terminlarni tarjima qilish tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari** tahlil qilingan.

Tilshunoslikning dolzarb muammolarini ilmiy jihatdan rivojlantirishning hozirgi holati leksikologiyaning vazifalari, ma'no va baholash nazariyasining umumiy rivojlanish istiqbollari lingvistik yangiliklarni izlashni, oldingi muammolarga yangicha qarashni taqozo etadi va shu bilan birga, hozirgi kundagi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikdagi ilmiy tadqiqotlar qiyosiy yo'l bilan o'rganildi. Til fani rivojining hozirgi bosqichi tadqiqotchilar oldiga ushbu masalalarni zamonaviy metodlar asosida qaytadan tadqiq etish vazifasini qo'yadi. Ushbu metodlardan biri til materiallarini o'ziga xos tizim sifatida o'rganish metodidir. Buning sababi shundaki, til va uning qatlamlari (lug'at ham o'z qatlamlari) bilan bir butun tizim sifatida jamlanadi. Har bir lug'at o'z qatlamidagi tizim bilan ifodalanadi, chunki har bir so'z va atama ushbu tizimdagi boshqa so'z va atamalar bilan o'zaro munosabatlari muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi tilshunoslikda tilni tizim sifatida tushunish va o'rganishga katta e'tibor beriladi. Tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biri bu til va uning darajalarini o'rganishga tizimli yondashishdir. Tilning tizimligini idrok etishga yondashuvlarning xilma-xilligi, eng avvalo, til tizimining o'zi, darajalari va birliklarining murakkabligi, ko'p qirraliligi, nomuvofiqligi va o'zgaruvchanligidan dalolat beradi.

Pedagogika sohasida ilmiy matnlarni tarjima qilishni o'rgatish modelini ishlab chiqish jarayonida atamalarning etimologik komponentiga asoslangan holda tarjima kompetensiyasining umumiy va etimologik kompetensiyani shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, xususan:

- pedagogik, lingvistik, madaniy va tarjima bilimlarining integratsiyasi;
- pedagogik o'quv va kasbiy faoliyatini rag'batlantirish (tashqi va ichki motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish);

-tarjima kompetensiyasini shakllantirishda etimologik komponentning ustuvorligi va etimologik kompetensiyaning kognitiv, nutqiy, sotsial-madaniy, sotsiolingvistik, pragmatik, kompensatsion, diskursiv va informativ kompetensiyalar bilan aloqasi.

Tarjimaviy kompetensiyani umumiy va xususan etimologik kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari deganda biz maxsus yaratilgan ta'lim muhitini tushunamiz, unda kasbiy kompetensiya va unga kiritilgan kompetensiyalar shakllanadi va rivojlanadi, pedagogik faoliyat olib boriladigan holatlar majmuidan tashqariga, shuningdek, o'quv jarayonini samarali amalga oshirishni ta'minlaydigan texnikalar, vositalar va o'qitish usullari quyidagilar.

1. *Tarjimada, madaniy, lingvistik va pedagogik bilimlarning integratsiyasi*

Pedagogik, lingvistik, madaniy va tarjima bilimlarini integratsiyalashuvi atamalarning etimologik komponentiga asoslangan ilmiy matnlarni tarjima qilishni o'rgatish modelini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartidir. Pedagogik faoliyat egalari, o'qituvchi, balki tadqiqotchi sifatida ham faoliyat ko'rsatganligi sababli, uning kasbiy malakasini shakllantirishda til va madaniy bilimlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Pedagogik faoliyatning kasbiy standartida madaniyat haqidagi bilimlarni kuzatish ushbu faoliyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir: Pedagogik faoliyat o'quvchining maqsadli rivojlanishida, madaniyat asoslarini o'zlashtirishda ifodalangan faoliyat turlaridan biridir va uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Shunday qilib, tarjima, madaniy, lingvistik va pedagogik bilimlarni birlashtirmasdan turib, atamalarning etimologik tarkibiy qismiga asoslangan ilmiy matnlarni tarjima qilishni o'rgatish modelini amalga oshirish mumkin emas.

2. *Pedagogika sohasi vakillarini o'quv va kasbiy faoliyatini rag'batlantirish (tashqi va ichki motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish).*

Motivatsiya umumiy tarjima kompetensiyasini, xususan, etimologik kompetensiyani muvaffaqiyatli egallash shartlaridan biridir. Grigorovichning ta'kidlashicha, "har qanday faoliyat samaraliroq davom etadi va sifatli natijalar beradi, agar bir vaqtning o'zida odamda faol harakat qilish, kuchini to'liq bag'ishlash, muqarrar qiyinchiliklarni, noqulay sharoitlarni va boshqalarni yengish istagini keltirib chiqaradigan kuchli, yorqin, chuqur motivlar bo'lsa ko'zlangan maqsad sari tinmay olg'a borayotgan sharoit paydo bo'ladi.

I.A. Zimnyaya o'quv faoliyatining tashqi tuzilishining beshta asosiy komponentini belgilaydi, ularning asosiysi o'quv motivatsiyasidir dep hisoblaydi⁵⁵.

Ushbu tadqiqot doirasida biz pedagoglar duch keladigan atamalar o'quv va kognitiv faoliyati yuqori motivatsiyasini ta'minlaydigan quyidagi omillarni aniqladik.

1) *o'quv-uslubiy ta'minot talabalarning kasbiy manfaatlariga muvofiqligi.*

2) *muammoli o'qitish usullaridan foydalanish.* O'quv jarayonida qo'llaniladigan muammoli usullar faol intellektual muhitni yaratadi, kasbiy vazifalarni bajarishga ijodiy yondashishga o'rgatadi, talabalarning mustaqilligini rivojlantiradi va

⁵⁵ Зимняя И. А. Педагогическая психология: Учеб. для студентов вузов, обучающихся по пед. и психол. направлениям и спец. / И. А. Зимняя. - 2. изд., доп., испр. и перераб. - М.: Логос, 1999. — С. 382.

motivatsiyani oshiradi. Mashg'ulot jarayonida muammoning tayyor yechimi yo'qligi sababli talabalar o'z ijodkorlik qobiliyatlarini taklif qilish, muayyan masalaga o'z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3) *mustaqil ish*. Pedagogika sohasining barcha bo'limini misol qilib olsak, o'qishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri faol mustaqil ishdur.

- tegishli yo'nalish bo'yicha keng ta'limni talab qiladigan mustaqil tadqiqot va pedagogik faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan va chuqur kasbiy bilimlarni talab qiladigan muammolarni shakllantirish va hal qilish qobiliyati;

- muayyan tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda zarur tadqiqot usullarini tanlash, mavjudlarini o'zgartirish va yangi usullarni ishlab chiqish qobiliyati;

- natijalarni qayta ishlash, mavjud ma'lumotlarni hisobga olgan holda ularni tahlil qilish va tushunish qobiliyati;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda bibliografik ishlarni olib borish qobiliyati;

4) *o'quv va ilmiy faoliyatga qiziqish*.

Qiziqish - bu o'quvchining o'ziga xos ichki yo'nalishi bo'lib, u o'quv faoliyati jarayoni va natijasiga ta'sir qiladi. O'quvchini maqsadli rivojlantirish, madaniyat asoslarini o'zlashtirish, uning qobiliyatini har tomonlama rivojlantirishda ifodalangan faoliyat turlaridan biri... O'qituvchi va talaba pedagogik jarayonning ekvivalent sub'ektlari sifatida harakat qiladi va tarjima ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib terminlar hamda termin shaklidagi leksemalarni to'g'ri tarjima qilish uchun turli xil usullar va yondashuvlar mavjud. Bu masala ustida ishlagan tilshunos V.N. Komissarov⁵⁶ tarjimashunoslikdagi tarjima transformatsiyasini uch xil turini ajratib ko'rsatadi. Ular quyidagilardan iborat:

- leksik (transliteratsiya, tarjima transkripsiyasi, kalka, ba'zi leksik-semantik almashtirishlar yoki o'zgartirishlar);

- Grammatik (so'z shaklini va gap bo'laklarini almashtirish orqali);

- kompleks tarjima (yaxlit) (tavsifli tarjima, antonimik tarjima).

L.S.Barxudayev⁵⁷ esa tarjima qilishning quyidagi usullarini taklif qiladi:

qaytadan o'zgartirib to'g'rilash; qo'shimcha qilish; o'rnini to'ldirish (konkretlashtirish, umumlashtirish, gap-bo'laklarini o'zgartirish va boshqalar.); tushirib qoldirish.

J.P. Vine, J. Darbelne fikricha "terminlarni tarjima qilishning ikki usulini ko'rsatib o'tgan: -to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish (so'zma-so'z tarjima qilish, kalkalash va o'zlashtirish yordamida); -bilvosita tarjima qilish (muqobil tarjima, transpozitsiya, adaptatsiya, (moslashtirish, modulyatsiya)".

